

SAHNALASHTIRISH FAOLIYATI JARAYONIDA BOLALARDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Tursunboyeva Zuxra Umid qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida
o'qituvchisi

@zuxratursuboyeva97gmail.com

Xudayberganova Zilola Ozod qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
@xudayberganovazilola00@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada bolalarda sahnalashtirish faoliyati jarayonida ijodkorlik qobiliyatlarini va ularning shaxs sifatida kamolga yetishidagi ahamiyatlari yoritilgan. Bugungi kundagi ta'lim jarayonida sahnalashtirish faoliyatida bolalarda psixik jarayonlarini rivojlantirishdagi fikrlarkeltirilgan.*

Kalit So'zlar: *sahnalashtirish, qobiliyat, ijodkorlik, faoliyat, rivojlantirish, diqqat, tafakkur, ifoda, „Teatr-Ijod-Bola“ dasturi.*

Bolalar sahnalashtirish faoliyatida orqali atrof-muhit bilan tanishadi va ular ko'proq o'ylashga, fikrlashga, tahlil qilishga xulosalar chiqarishga harakat qiladilar. Sahna asarlari orqali bolalar persanajlarga bo'lgan fikrlari uyg'ona boshlaydi. Ularda ko'rish, eshitish orqali qahramonlarning so'zlarini harakatlarini qilishga kirishadilar. SHuningdek, bolalarning his-tuyg'ulari rivojlanadi, persanajlarning rollari orqali ma'naviy jihatdan shaxs sifatida shakllana boshlaydi, shu persanajlarga qarab voqealarni ko'rib shu jarayonni ular bilan his qilishga ko'mak bo'ladilar.

Asosan, sahna faoliyati quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Nutq va ijro faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish;
2. Ijodkorlik muhitini yaratish;
3. Bolalarni ijtimoiy-emotsional rivojlantirish;

Sahnalashtirish faoliyati orqali bolalarda sahna asari bilan tanishtirish balki ularning nutqi, mimika, harakat va sahna kabi tushunchalarni shakllantirishdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida asosan sahnalashtirish faoliyatida quyidagi jihatlarga e'tibor qaratiladi:

- kichik guruhlarda, ifodali kichik hajimli ertak yoki sahna ko'rinishi;
- o'rta guruhlarda badiiy asarlardan foydalangan holda ko'proq intonatsiya, mimikalarni o'rgatis;
- katta guruh bolalarida badiiy obrazli ijro mahoratlarini va kattaroq hajimli ertak yoki sahna asarlarini shakllantirish;
- tayyorlov guruhida ijodiy mustaqillik, katta hajimli she'rlar, hazmi katta bo'lgan sahna asarlari orqali shakllantirish;

Bolalarda ijodkorlik qobiliyati ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi.

“Ijod” so'zining lug'aviy ma'nosi “yaratish” “yangilikni kashf etish” so'zlarini anglatadi. Ijodkorlik qobiliyatlari asosan tug'ma irsiyat orqali va ko'rish orqali shakllanishi ham

mumkin. Sahnalashtirish faoliyatida bolalarda his-tuyg'ularning shakllanishi tarbiyachi-pedogoglarga bog'liq bo'ladi. Tarbiyachi –pedogolar sahnalashtirish o'yinlari davomida bolalarda quyidagi qobiliyatlar rivojlanadi:

- AKTYORLIK QOBILIYATI;
- REJESSORLIK QOBILIYATI;
- SAHNA BEZASH QOBILIYATI;
- TOMOSHOBINLIK QOBILIYATI;

AKTYORLIK QOBILIYATI-qahramonlarning holatini tushinish, ovoz, mimika, ifodali o'qish hisiyotlarini nomoyon qilish qobiliyatlari;

REJESSORLIK QOBILIYATI-qahramonlarning qilgan ishlarini sabablarini tushunish voqealarni sabablari jihatlarini ta'minlash qobiliyatlari;

SAHNA BEZASH QOBILIYATI-sahna holati dekaratsiyasi, kostyum atributlarni tog'ri mos qilib tanlash qobiliyatlari;

TOMOSHOBINLIK QOBILIYATLARI- sahna asarlarida ko'rgan narsalariga fikr bildirish olish qahramonlar ijrosi haqida fikr bildirish olish qobiliyatlari;

Bolalarning qobiliyatlarini aniqlashda ular bilan ko'proq suhbatlashish kerak. Bu orqali bolalar o'z qobiliyatlarini nomoyon qilishga kirishadilar. Bolalar ko'proq o'yin o'ynasa yoki sahna ko'rinishlarini tomosho qilishsa o'zlarining nafaqat do'stlarining ham ijodiy qobiliyatlarini balki iqtidorlarini nomoyon qilishadi. Sahnalashtirish faoliyati o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va tasavvurlarini kengaytirishga hizmat qiladi.

Bastakor D.B.Kabalevskiy san'atning bolalar uchun ahamiyati haqida shunday deya fikr yuritgan: "Maktabgacha yoshdagi bolalarda san'at nafat go'zallik hislarini balki odob va axloq tushunchalarini ham paydo qiladi. Bolalarda o'chmas tasurrot qoldiradi. Sahnalashtirish faoliyati qanchalik boy va mazmunli bo'lsa, bolalarda dunyo qarashi shunchalik oson va muvoffaqitli kechadi"

Sahnalashtirish faoliyati bolaga muammoli vaziyatlarni bevosita, persanoj ro'limi ijro etish orqali yechishga imkon beradi. Bolalardagi o'zaro ishonchsizlik jur'atsizlik kabi sifatlarini yengib o'tishga imkon beradi.

Rassiyalik pedogog N.F.Sorokinaning "Teatr-Ijod-Bola" dasturi asosida "ertaklar yaxshilikka yetaklar" mavzusida ham ish olib borgan. Bu dastur orqali bolalarda teatr va ijodiy tarbiyasiga qaratilgan bo'lib bu uslubiy dastur ROSSIYADA va boshqa mamlakatlarda ham bolalarni teatr san'ati orqali ijodiy rivojlantirish uchun qo'llanilgan. Dastur bolalar uchun teatr o'yinlari, aktyorlik mashqlari, badiiy nutq va harakat ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Dastur bolaning yosh va qobiliyatlariga qarab moslashtiriladi hamda pedogoglar va teatr mutaxasislariga tomonidan qo'llaniladi. Teatr va ijod orqali bolalarda hissiy nutqiy va badiiy ko'nikmalar shakllanadi.

SHunday ekan, sahnalashtirish faoliyati bilan bog'liq mashg'ulotlar bolalarnin har tomonlama yetuk bo'lishida judda katta ahamiyatga ega ekan. Aynan shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan ishlarning usullari talabi asosida "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatiga o'rgatish" nomli fan qayd etilgan.

Sahnalashtirish faoliyatida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini yaratishda shart-sharoitlar yaratilgan. Bolalarni teatr madaniyati bilan tanishtirish kerakli jihozlardan foydalanish

usulublari ishlab chiqilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahna tomosholarida ota-onalar ham qatnashishi mumkin. Bu judam muhim jarayon hisoblanib, bolalarning va kattalarning hamkorligidagi ijodiy faoliyatida hayotga tayyorlanishga shxsnig barkamol bo'lib tarbiyalanishiga ham yordam beradi. Sahna asarlari orqali shuningdek, qiziquvchanlik intiluvchanlik yangiliklarga nisbatan rivojlanish imkoniyati rivojlanadi.

Sahnalarni yaratishda tabiiy materiallardan matolar va kostyumlardan foydalanish qulay.

Xulosa qilib aytganda, sahnalashtirish orqali bolalarda asosan shaxsni shakllantirish, his-tuyg'ularini rivojlantirish, o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantirish va ularning ruhiy sezgi tajribalarini jamlash va bu borada ota-onalarni ham jalb etishni yo'lga qo'yish. Sahnalashtirish faoliyati orqali bolalarning ma'naviy va ijodiy salohiyatini nomoyon etadi va ularning muhitga yaqinroq moslashishiga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.S.Teshabayeva „Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga yo'naltirish“-Darslik.
2. Z.S.Teshabayeva, „Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatining tamoyillari“-T.: Education science and innovative ideas in the world''38(1), 108-110, 2024
3. Z.U.Tursunboyeva „Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari asosida tarbiyalanuvchilarni atrof-olam bilan tanishtirish“-T.: „Образование, наука и инновационные идеи в мире“.
4. Z.U.Tursunboyeva „Maktabgacha yoshdagi bolalar atrof-olam bilan tanishtirish xususiyatlariga ko'ra tashkil etish shakllari“-T.: „Pedagog“ jurnali 354-359
5. Z.U.Tursunboyeva „Atrof-olam bilan tanishtirishga oid didaktik o'yinlar“-T.: „Mug'allim“ jurnali.
6. Z.U.Tursunboyeva „Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishga oid xorijiy tajribalar taxlili“-T.: „Образование наука и инновационные идеи в мире“.